

**INTERFAOL METODLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARDA
IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI**

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

(PhD), dotsent

zn.ortiqova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2797-0512

Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

shahzodaoripova9502@gmail.com

[ORCID ID: 0009-0003-8660-3493](https://orcid.org/0009-0003-8660-3493)

Annotatsiya: mazkur ilmiy tezisdagi boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishdagi didaktik ahamiyati, ularning psixologik-pedagogik asoslari va samarali qo'llash mexanizmlari yoritiladi. Ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, muammoli ta'lim, gamifikatsiya va raqamli interfaol platformalarning o'rni tahlil qilinadi. Tezis o'quvchilar uchun amaliy tavsiyalar, metodik modellar va interfaol topshiriqlar namunalarini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, kreativ fikrlash, gamifikatsiya, innovatsion texnologiyalar, kommunikativ yondashuv.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ
МЕТОДОВ**

Ортикова Зульфия Нурмахаматовна

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

zn.ortiqova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2797-0512

Орипова Шахзодахон Отамурод кизи

Магистрант Ферганского государственного университета

shahzodaoripova9502@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-8660-3493

Аннотация: В данном научном тезисе раскрывается дидактическое значение интерактивных методов в развитии творческих способностей учащихся в процессе начального образования, их психолого-педагогические основы и механизмы эффективного применения. Анализируется роль современных педагогических технологий, коммуникативного подхода, проблемного обучения, геймификации и цифровых интерактивных платформ в формировании творческого мышления. Тезис также включает практические рекомендации для преподавателей, методические модели и примеры интерактивных заданий.

Ключевые слова: творчество, интерактивные методы, проблемное обучение, креативное мышление, геймификация, инновационные технологии, коммуникативный подход.

***EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP STUDENTS' CREATIVITY
THROUGH INTERACTIVE METHODS***

Zulfiya Nurmakhmatovna Ortiqova

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

zn.ortiqova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-2797-0512

Shahzodakhon Otamurod qizi Oripova

Master's Student at Fergana State University

shahzodaoripova9502@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-8660-3493

Abstract: *This academic thesis highlights the didactic significance of interactive methods in developing students' creativity within the primary education process, as well as their psychological and pedagogical foundations and mechanisms for effective implementation. The role of modern pedagogical technologies, the communicative approach, problem-based learning, gamification, and digital interactive platforms in fostering creative thinking is analyzed. The thesis also includes practical recommendations for teachers, methodological models, and examples of interactive tasks.*

Keywords: *creativity, interactive methods, problem-based learning, creative thinking, gamification, innovative technologies, communicative approach.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, innovatsion qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Boshlang'ich sinfdan bola tafakkuri eng tez rivojlanadigan bosqich sanaladi. Shu sababli ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda interfaol metodlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Dars jarayoniga o'yinlashtirilgan elementlar kiritilishi o'quvchida mustaqil fikrlash, tasavvur, fantaziya, noodatiy yechimlarni topish kabi kreativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Dunyoning turli mamlakatlarida gamifikatsiyaning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissiy bo'yicha ta'tqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular o'yin elementlarining samaradorligini tasdiqlaydi¹.

Ijodkorlik — bu yangi, o'ziga xos g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati bo'lib, interfaol metodlar ushbu jarayonni tabiiy shaklda faollashtiradi. Ayniqsa konstruktivizm, kommunikativ yondashuv va divergent fikrlash nazariyasi interfaol metodlar bilan uzviy bog'langan.

Interfaol yondashuvning negizida quyidagi tamoyillar yotadi:

hamkorlikda o'qish tamoyili – o'quvchilar o'zaro fikr almashishi orqali

¹ Sh.Sh.Shoyusupova . "Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini motivatsiyasini oshirish." – Nukus: Metodist nashriyoti, 2025. https://www.researchgate.net/publication_gamifikatsiya-o'yinlashtirish

ijodiy natijaga erishadi;

faollik va mustaqillik tamoyili – dars jarayoni o'quvchi faoliyatiga asoslanadi;

shaxsga yo'naltirilganlik – har bir o'quvchining qobiliyati, iste'dodi inobatga olinadi;

muammoli vaziyat yaratish – yangi g'oya va kreativ yechimlarni topishga turtki bo'ladi.

Interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, muloqotga kirishish, guruhda hamkorlikda ishlash, mustaqil izlanish va o'z fikrini erkin ifoda etish imkonini yaratadi. Bu esa ularning ijodkorligini faollashtiruvchi muhim omillardandir.

Raqamli ta'lim vositalari – Kahoot, Wordwall, Scratch, Blooket – o'quv jarayonini jonlantiradi, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi va ijodiy topshiriqlarni bajarishda yangi imkoniyatlar yaratadi. “missiya”, “quest”, “rol o'ynash”, “ball yig'ish” va “badge” tizimlari esa o'quvchini rag'batlantiruvchi omillar sifatida ijodkorlikni sezilarli kuchaytiradi².

Bu elementlar o'quvchida raqobat hissini uyg'otib, ularda topshiriqlarni bajarishga nisbatan qiziqishni oshiradi. Eng muhimi, o'yinlashtirilgan topshiriqlarda o'quvchi o'z bilimini yangi vaziyatlarda qo'llashga harakat qiladi, bu esa ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda interfaol metodlar o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Bu metodlar o'quvchini dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol ijodkor shaxsga aylantiradi. Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, muammoli ta'lim va loyihaviy faoliyat bilan integratsiya qilinishi esa ijodkorlik kompetensiyalarining chuqur shakllanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan oqilona foydalanish – kelajakda mustaqil, kreativ fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashning muhim omilidir.

² Zokirova N.B. “Raqamli pedagogika asoslari”. Toshkent, 2022. <https://inlibrary.uz/index.php/raqamli-pedagogika>
www.tadqiqotlar.uz 26-to'plam 3-son Dekabr 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Sh.Shoyusupova . “Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini motivatsiyasini oshirish.” – Nukus: Metodist nashriyoti, 2025.
https://www.researchgate.net/publication_gamifikatsiya-o'yinlashtirish
2. Zokirova N.B “Raqamli pedagogika asoslari”. Toshkent, 2022.
<https://inlibrary.uz/index.php/raqamli-pedagogika>
3. Yo‘ldoshev J, Usmonov S. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.”Toshkent,2020.<https://arm/admin.xiuedu.uz/media/books/pedagogik-mahorat>
4. Sawyer R.K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford University Press, 2012.
5. Abdug‘aniyeva M. “ Gamifikatsiya orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish”. Qo‘qon, 2025.
<https://ilmiyxabarlar.kspi.uz/index.php/journal/issue/view/15>
6. Nazokat Xayitova. “Boshlang‘ich talimda gamifikatsiyadan foydalanish”.Toshkent,2023.https://www.researchgate.net/publication/379822562_Boshlang'ich_talimda_geymifikatsiyadan_foydalanish